



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 374 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalarda tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications..... 218 Allamurodov Elyor Tursun ugli	218
	Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini..... 223 Dilrabo Jumanova	223
	Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar 227 Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	227
	Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar 232 Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	232
	Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 235 Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	235
	Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi..... 239 Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	239
	Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ... 244 Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	244
	Ingliz tilini boshqa sohadagilarga o'qitishda grammatik jihatlar 247 Ataboyeva Guliruxsor Baxtiyor qizi	247
	Methodological Foundations for Developing Environmental Education Through the Integration of Climate Change Education Into Biology Lessons in General Secondary Schools..... 250 Abdurakhmanova Iqbolkhon Yulchiyevna	250
	Sharq va G'arb mutafakkir olimlarining oila va farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari 255 Berdiyeva Dilnoza A'zamovna	255
	Ommaviy sport turlari yordamida ayollarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda ilmiy yondashuv 258 Charos Axmadova	258
	STEAM integratsiyasi orqali maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish 262 Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich	262
	Maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi 267 Djalalov Baxromjan Begmurzayevich	267
	Raqamli transformatsiya sharoitida yosh ota-onalarda yolg'izlik hissining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar 272 Erimmetova Nafisa Bahromovna	272
	Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning strategiyalari 279 Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi	279
	Maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari..... 283 Karimov Jaxongir Abdunabiyevich	283
	Jadidlar merosiga e'tibor: tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili..... 287 Madaminova Shaxodat Shomurotovna	287
	Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va nutqni baholashdagi imkoniyatlari..... 293 Mahmudova Maftuna Aktam qizi	293
	Effectiveness of Simulator Technologies in Pilot Training: an Experimental Study 297 Maksudov Ilhomjon Turgunboy o'g'li	297
	Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi..... 301 Menlibayeva Azima Oralbayevna, Oralbayeva Aziza	301
	Raqamli jamiyat sharoitida ong transformatsiyasining falsafiy jihatlari..... 305 Muxitdin Nazarov	305
	10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi ... 310 Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi	310
	Zamonaviy ta'lim paradigmasida "potensial" tushunchasi: shaxsning rivojlanishga qaratilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiya..... 314 Qurbonova Gulmira Alisher qizi	314



Deffenbacherning driving anger scale metodi asosida haydovchilarning agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini jinslar kesimida o'rganish	318
Rahim Usmonov Raxmonali o'g'li	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	323
Sadoqat Sarmanova Shermahmatovna	
Vizual axborot: paydo bo'lish tarixi, qo'llanish sohalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	328
To'g'izboyev Faxriddin Ulashovich	
Fizika darslarini tashkil etishning mazmuni, mohiyati va didaktik tamoyillari.....	334
Turabova Lobar Xusen qizi	
Ekstrakorporal urug'lantirish orqali tug'ilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi	339
Usmonova Xusnora Ergashovna	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorligini shakllantirish	344
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Milliy va xalq o'yinlari vositasida talabalarni sog'lomlashtirish.....	347
Ahmedov Gayratjon Kosimovich	
Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины.....	350
Бабаджанова Гулчехра	
Формирование творческого восприятия учащихся на уроках музыки.....	355
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	358
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida	362
Ergashova Dilafro'z	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy karyerani shakllantirishning metodologik asoslari	365
Hayitova Sarvinoz Mahmudovna, Ilmiy rahbar: Ashirova Sojida Baxromovna	
Pedagogical and Methodological Foundations for Developing an Interactive Mobile Application for Teaching English to Preschool Children (Based on the Solobee Project)	368
Khurshida Kuchkarova	

ZAMONAVIY TA'LIM PARADIGMASIDA “POTENSIAL” TUSHUNCHASI: SHAXSNING RIVOJLANISHGA QARATILGAN ICHKI IMKONIYATLARI, BILIM, KO'NIKMA, QOBILIYAT VA KOMPETENSIYA

Qurbonova Gulmira Alisher qizi
QarDU 1-kurs tayanch doktranti

<https://orcid.org/0009-0003-4973-0311>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim paradigmasi doirasida “potensial” tushunchasining mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Potensial shaxsning rivojlanishga yo'naltirilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat va kompetensiyalarini faol ta'lim hamda ijtimoiy muhitda samarali namoyon etish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Maqolada potensial o'quvchi yoki pedagogning o'z-o'zini anglashi, ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlovchi integrativ sifat sifatida yoritilgan.

Kalit so'zlar: potensial, integratsiya, ijodiy tafakkur, kompetensiya, subyekt, imkoniyat, qobiliyat, tayyorlik.

Abstract: This article examines the essence of the concept of “potential” within the framework of the modern educational paradigm. Potential is interpreted as a set of an individual's internal capacities aimed at development, as well as the ability to effectively apply knowledge, skills, abilities, and competencies in educational and social environments. The study considers potential as an integrative quality that enables learners and teachers to achieve self-awareness, develop creative thinking, make independent decisions, and participate successfully in social activities.

Key words: potential, integration, creative thinking, competence, subject, opportunity, ability, readiness.

Аннотация: В данной статье в контексте современной образовательной парадигмы анализируется сущность понятия “потенциал”. Потенциал рассматривается как совокупность внутренних возможностей личности, направленных на развитие, а также способность эффективно реализовывать знания, умения, навыки и компетенции в образовательной и социальной среде. В статье потенциал представлен как интегративное качество, обеспечивающее самосознание обучающегося или педагога, развитие творческого мышления, способность к самостоятельному принятию решений и успешному участию в общественной деятельности.

Ключевые слова: потенциал, интеграция, творческое мышление, компетенция, субъект, возможность, способность, готовность.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida “potensial”ni rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki globallashuv, raqamli madaniyat va axborot oqimining keskin ortishi insondan nafaqat tayyor bilimlarni egalashni, balki o'zining ichki salohiyatini tahlil qilish, yangi vaziyatlarda uni ijodiy qo'llashni ham talab qiladi. Shu bois ta'lim jarayonida “potensial” tushunchasi shaxsning kompetensiyaviy, kommunikativ va lingvistik rivojlanishining markaziy mohiyati sifatida e'tirof etiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, “potensial” - bu ta'lim subyekting o'z imkoniyatlarini ongli ravishda faollashtirish, individual o'sish strategiyasini belgilash va ijtimoiy foydali faoliyatda namoyon etish qobiliyatidir. Shunday qilib, bugungi kunda har bir yo'nalishda muayyan potensialni shakllantirish ta'limning asosiy maqsadi insonni o'zgaruvchan dunyoda o'zini ro'yobga chiqara oladigan, moslashuvchan va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir.

Shunga ko'ra, “potensial” shaxsning muayyan qobiliyat va imkoniyatlar majmuasini ifodalaydi. Lingvistik nutqiy potensial esa shaxsning til vositalaridan samarali foydalanish, kommunikativ vaziyatni to'g'ri baholash va ma'noni aniq, ta'sirchan hamda madaniy me'yorlarga muvofiq ifoda eta olish qobiliyatini anglatadi. U faqat til bilimi bilan cheklanmay, balki shaxsning kognitiv (bilish), ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarini ham qamrab



oladi. Shu jihatdan nutqiy potensial shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanish darajasining ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi.

Lingvistik nutqiy potensialni rivojlantirish masalasi insonning asosiy huquqlaridan biri - erkin fikrlash va so'z erkinligi huquqi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu huquq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida belgilangan bo'lib, unga ko'ra har bir fuqaro erkin fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligiga ega. Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda (2020-yil 23-sentabr) ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida shaxsning intellektual va nutqiy salohiyatini rivojlantirish belgilab qo'yilgan. Shuning uchun lingvistik nutqiy potensialni rivojlantirish nafaqat pedagogik va psixolingvistik ahamiyatga ega, balki huquqiy jihatdan ham insonning so'z orqali o'z fikrini ifoda etish, muloqotga kirishish va jamiyatda faol ishtirok etish huquqini amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi insonning bir qancha potentsiallaridan biri (gnoseologik, ijodiy va boshqalar) ma'no-sida ushbu tushunchani shaxsiy xususiyatlar tizimi (qobiliyatlar, bilimlar, ko'nikmalar, ishonchlar, yo'naltirilganlik) nuqtai nazaridan tahlil qilish, ularning shaxsning mavjud va "egallangan" imkoniyatlarini aktuallashtirish sharti sifatidagi o'rnini aniqlash hamda uni muayyan faoliyat turida o'z-o'zini ro'yobga chiqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga undovchi omil sifatida ko'rib chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili metodiga asoslanadi va quyidagi yondashuvlarni qamrab oladi: nazariy-metodologik tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlari. L.G. Ustinovanning dissertatsion tadqiqotida berilgan quyidagi ta'rifni juda samarali nuqtai nazar sifatida ta'kidlaymiz: "Potensial - insonda shakllanayotgan ichki tuzilma bo'lib, unda uning shaxs va mutaxassis sifatidagi umumiy qobiliyatlari, faoliyat subyekti sifatidagi qobiliyatlari integratsiyalashadi" [1].

Biroq, ma'lumki, shaxsdagi mavjud qobiliyatlar va fazilatlar faqat tegishli ko'nikmalar va malakalarni egalash hamda amalga oshirish jarayonida obyektiv ravishda namoyon bo'ladi. Ular esa muayyan sohalarida olingan bilimlar asosida shakllanadi. V.N. Kuzmina, V.A. Slastenin va A.I. Shcherbakov ta'kidlaganidek, bunday bilimlar, ko'nikmalar va malakalar majmui mos ravishda "faoliyatga tayyorlik" tushunchasi bilan ifodalanishi mumkin [2-4].

M.A. Kotikning fikricha, "tayyorlik" atamasi shaxsning motivatsion aspektini aks ettirib, istak, vaziyatlilik va vaqtinchaliklikni ifodalaydi hamda shuning uchun shaxs fazilatidan ko'ra ko'proq holat sifatida xarakterlanadi [5].

X. Geym esa, aksincha, "tayyorlik" atamasini individual fazilat sifatida ko'rib chiqadi, chunki tayyorlik, masalan, xavfga tayyorlik kabi, vaziyat bilan shubhasiz bog'liq bo'lsa-da, asosan insonning individual fazilatlariga asoslanadi [6].

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, u tayyorlikka bog'liq bo'lgan asosiy fazilatlarini ajratib ko'rsatadi: dominantlik, ekstrovertlik, qat'iylik, egosentrizm, beparvolik va boshqalar.

"Tayyorlik" tushunchasini professional, xususan, pedagogik faoliyatga nisbatan ko'rib chiqish ayrim olimlarni unda turli darajalarni ajratib ko'rsatish zarurligi haqidagi xulosaga olib kelgan. Masalan, V.A. Slastenin, I.F. Isaev, A.I. Mishchenko va Ye.N. Shiyonov pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikning ikki darajasini ajratib ko'rsatadilar: nazariy va amaliy. Ularning ta'rifiga ko'ra, nazariy tayyorlik uning egasi tomonidan umumiy pedagogik va maxsus bilimlarni egallashda namoyon bo'ladi. Amaliy tayyorlik mazmuni esa egasining "tashqi" (predmetli) ko'nikmalarida, ya'ni kuzatilishi mumkin bo'lgan harakatlarida ifodalanadi. Ushbu olimlar bunga tashkilotchilik va kommunikativ ko'nikmalarni ham kiritadilar.

"Tayyorlik" tushunchasining ichki murakkabligiga e'tibor qaratgan V. Moshkin uning tarkibida quyidagi tuzilma komponentlarini ajratib ko'rsatadi:

- motivatsion (vazifalarni bajarish uchun mas'uliyat, burch tuyg'usi);
- orientatsion (faoliyatning zarur usullari, bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallash);
- irodaviy (o'z-o'zini nazorat qilish, harakatlarni boshqarish qobiliyati);
- baholash (o'z tayyorgarligini baholash va vazifalarni hal qilish jarayonining optimal namunalarga mosligini aniqlash) [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqoridagi talqinlarni umumlashtirib, ularning mantiqiy natijasi sifatida S.Ye. Saryovanning insonning har qanday faoliyatga tayyorligini quyidagi formula orqali ifodalash mumkinligi haqidagi xulosasini keltirib o'tamiz:

"Tayyorlik = Istak + Bilim + Ko'nikma".

Ushbu formulani qabul qilish mumkin, chunki u tayyorgarlikning uch asosiy jihatini - motivatsion (shaxsiy), informatsion va faoliyat tomonlarini birlashtiradi hamda shu orqali "kommunikativ potensial"ni chuqurroq tahlil qilish uchun qulay zamin yaratadi^[6].

Yuqoridagi mualliflarning asosiy pozitsiyalarini integratsiya qilgan holda, tayyorgarlikni shaxsning faoliyatga yo'naltirilgan holati sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir. U psixologik va fiziologik omillarni, tashqi sharoitlarni aks ettiradi hamda murakkab kommunikativ vaziyatlarda maqsadga muvofiq xatti-harakatlarni tartibga soluvchi regulyator rolini bajaradi.

Ayniqsa, nutqiy-lingvistik potensial nuqtai nazaridan qaralganda, bunday tayyorgarlik til bilimlari (leksika, grammatika), nutq amaliyoti va kommunikativ strategiyalar majmuasini o'zida mujassamlashtirib, subyektning suhbat, munozara va ijtimoiy muloqotdagi samaradorligini belgilaydi. Shunday qilib, nutqiy-lingvistik potensial nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki motivatsiya va faoliyatni ham uyg'unlashtirgan holda murakkab vaziyatlarda samarali kommunikatsiyani ta'minlovchi dinamik holat hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, bu potensial imkoniyatlarning maqsadga muvofiq safarbar etilgan holati, shakllangan munosabat, bilimlar, shuningdek, o'zgaruvchan sharoitlarni hisobga olgan holda harakat qilish ko'nikma va malakalarining mavjudligidir.

Avvalroq potensial tushunchasini talqin qilishda tilga olingan "imkoniyat" tushunchasiga kelsak, u, bizningcha, ko'pincha sinonimik bo'lgan "qobiliyat" tushunchasidan farqli ravishda, olimlar tomonidan maxsus psixologik-pedagogik kategoriya sifatida kamroq ko'rib chiqiladi. Shu munosabat bilan pedagogik bo'lmagan turli manbalarda taklif etilgan talqinlarni ko'rib chiqamiz.

Masalan, izohli lug'atda ushbu tushunchaga quyidagi ta'rif beriladi: "Imkoniyat - biror narsani amalga oshirish uchun zarur vosita, shart; mumkin bo'lgan holat". Falsafiy ensiklopedik lug'atda esa ushbu tushuncha quyidagicha izohlanadi: "Imkoniyat - predmetning shakllanishidagi obyektiv tendensiya bo'lib, uning paydo bo'lishi uchun zarur shartlarning mavjudligida ifodalanadi".

Pedagogik lug'atda "imkoniyat" atamasi "1) ijobiy shart-sharoit yoki holat; 2) ichki resurslar, kuchlar va qobiliyatlar majmui" tarzida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, har qanday imkoniyatning mazmuni insonning ichki qobiliyatlari bilan belgilanadi. Agar bu qobiliyatlar mavjud bo'lmasa, insonning imkoniyatlari ham cheklangan bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, kommunikativ potensial masalasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, uning muvaffaqiyatli shakllanishi va namoyon bo'lishi uchun zarur bo'lgan asosiy omil - lingvistik va nutqiy qobiliyatlarning uyg'un rivojlanishidir. Chunki lingvistik-nutqiy potensial insonning ichki imkoniyatlarini, ya'ni til bilimlari, nutq madaniyati, muloqot strategiyalari hamda ularni real vaziyatlarda ijodiy qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi.

Demak, insonning kommunikativ muvaffaqiyati bevosita uning lingvistik-nutqiy potentsiali darajasi bilan bog'liq bo'lib, u shaxsning ichki imkoniyatlarini amalda namoyon etish mezonini sifatida qaraladi.

Shu tariqa, lingvistik-nutqiy potensial shaxsning nutq faoliyatidagi ichki resurslarini, kognitiv imkoniyatlarini va til vositalaridan foydalanishdagi ijodiy salohiyatini belgilovchi muhim integrativ ko'rsatkich sifatida qaraladi.

Ushbu muammo bo'yicha turli olimlar pozitsiyalarini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- potensial ijtimoiy sharoitlar majmuasi asosida shakllanadi;
- faoliyat jarayonida o'zgaradi va rivojlanadi;
- potensialni tahlil qilish determinizm prinsipiga asoslangan yaxlit yondashuv nuqtai nazaridan amalga oshirilishi kerak.

Shunga o'xshash fikrni kommunikativ qobiliyatlar haqida ham aytish mumkin. Ularni o'qitish jarayonida rivojlantirish mumkin, buning uchun esa tegishli pedagogik sharoitlarni yaratish lozim.

Shunday qilib, lingvistik-nutqiy potensialni shaxsning tayyorlik va imkoniyat kategoriyalari orqali tahlil qilish mumkin. Ushbu yondashuvda o'qituvchining lingvistik-nutqiy potentsiali uning kasbiy-pedagogik faoliyatida nutqiy va til vositalari orqali samarali muloqotni ta'minlashga tayyorligi sifatida izohlanadi. Boshqacha aytganda, u o'qituvchining o'quvchilar, hamkasblar, ota-onalar va jamoatchilik bilan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq, madaniyatli va ta'sirchan muloqotni tashkil etish qobiliyati hamda ushbu muloqotning turli vaziyatlarida nutqiy faoliyatni ilmiy asosda amalga oshirish imkoniyatini ifoda etadi. Shu tariqa, lingvistik-nutqiy potensial nafaqat til vositalaridan foydalanish kompetensiyasini, balki ular orqali shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy maqsadlarni samarali ravishda ro'yobga chiqarish salohiyatini ham qamrab oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yilliklarda ta'lim tizimida shaxsning lingvistik va nutqiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan yo'nalishlar tobora kuchayib bormoqda. Bu holat nafaqat o'quv jarayonining kommunikativ tabiati bilan, balki ta'limning shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlovchi asosiy omil sifa-



tida lingvistik-nutqiy potensialni shakllantirish muammosiga e'tibor ortishi bilan ham izohlanadi. MDH va xorijiy pedagog hamda psixolog olimlarning tadqiqotlarida mutaxassis shaxsining nutqiy rivojlanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar tizimini takomillashtirish masalasiga katta qiziqish bildirilmoqda. Ushbu muammo, masalan, D.X. Vagapova, K.A. Vlasova, N.V. Kazarinova, S.V. Kulnevich, V.N. Kunitsina, V.I. Lavrinenko, V.M. Leshchinskiy, M.Ye. Litvak, I.R. Maksimova, Y. Mel, R.P. Milrud, P. Mitsich, V.M. Pogodina, G.G. Pocheptsov, U. Pflingstel, V.M. Snetkov, R. Khintch, N.Y. Xusainova, I.M. Yusupov va boshqa mahalliy hamda xorijiy mutaxassislarning ishlarida ko'rib chiqilgan.

Lingvistik-nutqiy potensial muammosini tahlil qilishda zamonaviy ilmiy manbalarda terminologik noaniqlik holatlari kuzatiladi. Xususan, ko'pincha "potensial" va "kompetensiya" atamaları sinonim sifatida bir-birining o'rnida qo'llaniladi. Bu holat lingvistik va pedagogik adabiyotlarda ushbu tushunchalarning chegaralarini aniq belgilash zaruratini yuzaga keltiradi. Masalan, R.P. Milrud, I.R. Maksimova, K.A. Vlasova va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida "kommunikativ kompetensiya" shaxsning turli muloqot sohalari va vaziyatlarida samarali nutqiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar darajasini belgilaydi, deb ta'kidlanadi [13-15].

Biroq, bizning fikrimizcha, mazkur ta'rif lingvistik-nutqiy potensial tushunchasi bilan yanada kengroq izohlanadi. Chunki nutqiy potensial faqatgina mavjud kompetensiyalarning yig'indisi emas, balki ularni faoliyatda ishga solish imkoniyati, ya'ni shaxsning til vositalarini ijodiy va ma'no jihatdan maqsadga muvofiq qo'llay olish salohiyatini ham qamrab oladi. Shu jihatdan lingvistik-nutqiy potensial o'z tarkibida til kompetensiyasi, nutqiy amaliyot, madaniy-kontekstual bilish qobiliyati, strategik fikrlash va informatsion savodxonlikni birlashtiruvchi murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, agar "kompetensiya" shaxsning mavjud bilim va ko'nikmalar darajasini belgilasa, "lingvistik-nutqiy potensial" ularni ijtimoiy va kasbiy muloqot jarayonlarida faol ishga solish imkoniyatini tavsiflaydi. Bu esa shaxsning nutqiy faoliyatni amalga oshirishdagi ichki zaxiralarini, ijodkorlik darajasini va muloqot strategiyasini qamrab olgan keng kategoriya sifatida qaralishi zarurligini ko'rsatadi.

Chunki lingvistik-nutqiy potensial - shaxsning til va nutq sohasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda ijodiy fikrlash imkoniyatlarini qamrab olgan integrativ psixologik-lingvistik tuzilma bo'lib, u insonning turli muloqot vaziyatlarida til vositalaridan maqsadga muvofiq, ma'no jihatdan to'g'ri va ta'sirchan foydalanish salohiyatini ifodalaydi. U faqatgina til bilimining passiv zaxirasi emas, balki shaxsning nutqiy faoliyatni tashkil etish, mazmun yaratish va kommunikatsiyani samarali amalga oshirish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Lingvistik-nutqiy potensial nutq jarayonida faollashadi va shaxsning individual tajribasi, ijtimoiy muhiti, kasbiy yo'nalishi hamda kognitiv rivojlanish darajasi bilan bog'liq holda takomillashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Устинова, Л.Г. Развитие профессионального потенциала личности в образовательном процессе : дис. . канд. пед. наук. - Москва, 2010.
2. Кузьмина, Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. - Москва : Высшая школа, 1990.
3. Сластенин, В.А., Исаев, И.Ф., Мищенко, А.И., Шиянов, Е.Н. Педагогика. - Москва : Академия, 2013.
4. Щербаков, А.И. Психологические основы формирования личности учителя. - Ленинград : Просвещение, 1967.
5. Котик, М.А. Психология и безопасность. - Таллин : Валгус, 1987.
6. Heim, H. Psychology of Risk and Readiness. - Berlin, 1970.
7. Мошкин, В.Н. Психологическая готовность личности к деятельности // Психологический журнал. - 2002. - № 4.
8. Сарыова, С.Е. Психолого-педагогические основы формирования готовности к профессиональной деятельности. - Алматы, 2015.
9. Выготский, Л.С. Мышление и речь. - Москва : Педагогика, 1982.
10. Леонтьев, А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - Москва : Политиздат, 1975.
11. Зимняя, И.А. Лингвопсихология речевой деятельности. - Москва : МПСИ, 2001.
12. Пассов, Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. - Москва : Русский язык, 1989.
13. Власова, К.А. Коммуникативная компетенция личности в образовательном процессе. - Москва, 2014.
14. Максимова, И.Р. Развитие коммуникативного потенциала личности. - Санкт-Петербург, 2012.
15. Милруд, Р.П. Компетентность в языковом образовании. - Тамбов, 2004.
16. Почепцов, Г.Г. Теория коммуникации. - Киев : Ваклер, 2001.
17. Юсупов, И.М. Психология взаимопонимания. - Казань, 1991.
18. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, 2023.
19. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son. - Toshkent, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.